



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA XURSHID DAVRON IJODINI O'QITISH

**Jinayeva Mahliyo Xaliq qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20625071>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 08-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 10-iyun 2026 yil

### KEY WORDS

*Xurshid Davron, adabiy ta'lim, lirik asar, she'r tahlili, tahlil kompetentligi, qiyosiy tahlil, fanlararo integratsiya, ijodiy topshiriqlar, badiiy tafsil, poetika, metodika, umumiy o'rta ta'lim.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Xurshid Davron ijodini o'qitishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Xususan, shoirning lirik asarlarini o'rganishda o'quvchilarning tahliliy, ijodiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Lirik asarlarni o'qitishda uchraydigan metodik muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda qiyosiy tahlil, fanlararo integratsiya va ijodiy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, Xurshid Davron she'rlarini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion metodlar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Bugungi globallashuv zamonida o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda "nimani qanday o'qitish" masalasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, adabiyot – ko'ngilga yo'l bo'lgan darslardan biri bo'lganligi sabab bu fan o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun yoshlari kitobxon bo'lishi, qalbi tozarishi kabi muammolarni bir nuqtada tutashtirib, barcha savollarga javob bera oluvchi obyektlardan biri bu badiiy asarlardir. Sababi bunday asarlarni o'qish o'quvchiga shunchaki estetik zavq berish yoki vaqt o'tkazish bilangina chegaralanib qolmaydi, balki ularda bir qancha sifatlarni shakllantiradi, yaratuvchanlik sari ilhomlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Sababi badiiy asarlarda ham tarix, ham bugun, ham kelajak tutashadi.

Shuningdek, yaxshi o'qituvchidan bir vaqtning o'zida ham olim, ham beg'ubor bolakay bo'la olish talab etiladi. Olimlik nuqtayi nazari bilan o'quvchilarga asardagi ilmiy xatolarni topish, undagi mantiqni tekshirish o'rgatilsa, bolakay sifatida mo'jizalarga, kelajak va inson tafakkuri qudratiga ishonch hissi singdiriladi. Bunda o'qituvchining ilmiylik va orzu muvozanatini barqarorlashtirib turuvchi "taroz" ekanligi ko'rinadi.

Bu jarayonda o'qituvchi xuddi shoir singari xayolot erkinligiga g'arq bo'lib, qoliplarni chetlab o'tishi kerak, ya'ni darslikdagi "Rasm chizing, jadvalni to'ldiring, savollarga javob bering" kabi zerikarli topshiriqlar o'rniga "Kelinglar, shu asarning davomini o'zimiz komikslar yaratish orqali yozamiz", "Agar qahramonning o'rnida bo'lganingizda, siz nima qilgan bo'lar edingiz?", "She'rga qaytadan yangi sarlavha toping", "Xurshid Davron ijodidan eng yoqqanini o'qib unga o'xshatma shaklida o'zingiz she'r yozing" deb jarayonni o'zgartira olishi kerak.

Bugungi kun 6-sinf va 11-sinf adabiyot darsliklarida Xurshid Davron hayoti va ijodi berilgan. Har ikki darslikda o'quvchi Yoshi va dunyoqarashi hisobga olingan holda she'rlari tanlangan.

Lirik asarlarni o'qitish, ayniqsa, ularni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan metodik muammolar mavjud. O'qituvchilar bu janrdagi asarlarni tahlil qilishdan ko'ra ko'pincha o'quvchilarga she'rni yod oldirib, shu bilan baholashadi. Aslida esa, she'rning mazmunini tushunish, lirik asar nima haqida ekanligini tahlil qilish, shoirning o'ziga xos mahoratini ochib berish kabi masalalar bosh maqsad bo'lish kerak. Albatta, bu jarayonda o'quvchilar she'rni ham yod olishi kerak, bu xotirani mustahkamlaydi. Bu jarayondagi to'liq muammolarni bartaraf etishda vizual-metodik vositalardan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadlari sirasida olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay oladigan, o'qigan va ko'rganlari yuzasidan mustaqil fikr bildira oladigan avlodni tarbiyalashdek muhim mas'uliyat bor. Shu o'rinda rus psixologi Lev Semyonovich Vigotskiyning quyidagi so'zlariga diqqat qaratamiz: "Fikrlash jarayoni bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola "yutib", o'zicha "hazm qila" boshlaganidan so'ng shakllanadi". Oila muhitidagi tafakkurga odatlanish hayotning keyingi davrlarida ta'lim dargohlarida yangicha mazmun bilan boyishi ayni bor gap. Bu borada maktab adabiy ta'limining o'rni benihoya katta. Boisi o'rta ta'limdayoq o'quvchi adabiyotni o'qish va o'rganishning asl muddaosi nima ekanini anglagandagina, o'qilgan asarni, Vigotskiy ta'biri bilan aytganda, "yutib", o'zicha "hazm qila" olgandagina u ushbu fanni shunchaki "yod olish" yoki "qayta bayon qilib berish" darsi sifatida tushunmaydi, fanning asl muddaosini tushunib yetib, unga yondashuv ham o'zgaradi. Shu jihatdan badiiy asar g'oyasini, mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish, mustaqil ang'lay bilishga o'rgatishning qator usullari mavjud bo'lib, ularning asosiy qismini nazariy ma'lumotlarga tayangan holda fikrlash tashkil etishi dolzarblik kasb etadi.

Ayni borada mutolaa qilingan, o'rganilayotgan badiiy yaratilgan poetikasini, uning asar o'laroq yaxlitligini ta'minlagan barcha unsurlarning mohiyati va ahamiyatini anglashga o'rgatish uchun tahlilga asos bo'lib xizmat qiladigan nazariy qoidalarni berilgan asar tabiatidan, unda urg'u berilishi lozim bo'lgan jihat nuqtayi nazaridan tanlash hamda taqdim etish zarur sanaladi. Deylik, 6-sinf "Adabiyot" darsligida Ibroyim Yusupovning "Qadr don so'qmoqlar" va Xurshid Davronning "Vatan devorlari" she'rlari qiyosiy tahlili jarayonida metafora va o'xshatishlar haqidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bularning barchasi go'yo asar mohiyatini anglashga ochqich vazifasini bajaradi.

“O‘qituvchi kitobi” metodik qo‘llanmasida nazariy ma‘lumot – badiiy detalni o‘quvchilarga o‘rgatish va shu asnoda tushuncha hosil qilishni nazarda tutadigan usul sifatida quyidagilar tavsiya etilgan:

Bu usul ham detal obraz va u ifoda etgan yoinki uning zamirida mujassamlashgan,

*“O‘quvchilardan ko‘zlarini yumib, biron yaqin kishilarini tasavvur qilishni so‘rang. Bu kishini tasavvur qilganda ko‘z oldiga birinchi bo‘lib nima keladi? Misol uchun, bobo yoki buvilarini tasavvur qilganda hassa, onani tasavvur qilganda ro‘mol, akasi yoki do‘stini tasavvur qilganda uning yoqtirgan kiyimi xayollarida gavdalanishi mumkin. Kishini tasavvur qilishga yordam beradigan kiyimi, unga tegishli buyum, xatti-harakatlari yoki nutqidagi o‘ziga xoslik detal bo‘lib xizmat qiladi. Bu detal bizga kishini (obrazni) tasavvur qilishdan tashqari, uning xarakterini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, bir kishi muloqot davomida qo‘lidagi mashina kalitini o‘ynayapti. Bu detal bizga uning xakteri haqida qanday ma‘lumot beradi? O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini topshiring. Bunda har bir guruhdan bitta obrazga xos detallarni topib, izohlashni ham so‘rash mumkin”.*

moddiylashtirilgan tushunchalarning o‘zaro dialektik munosabatini tasavvur qilishga ko‘mak beradi. Endi mazkur nazariy masalalarni lirik asarlarga ham tatbiq etib, ularning arxitektonikasida, mazmuniy qurilishida poetik tafsilning ahamiyati borasida so‘z yuritish lozim. Ayni jihatdan detal obrazning peyzaj bilan ruhiy holatlar ifodasidagi o‘ziga xosligini quyidagicha izohlash mumkin: “faqat peyzaj ifodasiga bag‘ishlangan he‘rlar aslida to‘lig‘icha kayfiyat va ruhiy holatni ko‘rsatishga qaratilgan. Shu bois ham lirikadagi peyzaj tasvirini tabiat manzarasi deyishdan ko‘ra shoir yoki lirik qahramon kayfiyatlarining vositali manzarasi deyish to‘g‘riroq bo‘ladi”. Shularni hisobga olib, o‘quvchilarni badiiy detallar mohiyatini anglashga o‘rgatishda fanlararo integratsiyaga tayanish, peyzaj to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni taqdim etish yo‘lidan borish samarali natija beradi. Jumladan, adabiyot darslarini tabiatshunoslik, tasviriy san‘at kabi o‘quv predmetlari bilan integratsiyalashtirib tashkil etish ayni mavzularning tushunilish darajasi ortishiga omil o‘laroq xizmat qiladi.

Masalan, 6-sinf “Adabiyot” darsligida adabiyot va tasviriy san‘at fanlari integratsiyasiga asosanib mashg‘ulot tashkil etishni ko‘zda tutgan mavzular berilgan bo‘lib, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, nafaqat nazariy qoidalar, balki o‘quvchilarga darslik mualliflari tomonidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar, ijodiy ishlar ularda qo‘llangan poetik detallar, tabiat obrazi zamiridagi ma‘nolarni anglashga yordam beradi. Bundan tashqari fanlararo integratsiyani o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlar uchun ham alohida dars soatlari hamda badiiy asardan parchalarning berilishi tahlil ko‘nikmasini shakllantirish, eng muhimi, egallangan bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy detallar tabiatga daxldorlik

kasb etgan taqdirda ularni qiyosan o'rganish asnosida qiyosiy tahlil obyektlari (tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy obyektlar) haqida ham nazariy ma'lumotlarni keltirish o'rinli bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimiz usullardan tashqari yana bir muhim jihat borki, bu o'quvchilarda tahlil kompetentligini oshirish hisoblanadi, ya'ni har qanday badiiy asar mutolaasi davomida va undan so'ng badiiy matnning aynan qaysi o'rinlariga e'tibor qaratish, tahlilni nimadan boshlash kerakligi xususida ko'nikma hosil qilishda ko'rinadi. Buning uchun, avvalambor, adabiyot fani o'qituvchisi tahlil kompetentligini egallagan, badiiyat mezonlaridan boxabar, badiiy asar analizining qator metodlarini va ularning har birini badiiy yaratilgan tur nuqtayi nazaridan o'ziga xos yondashuv asosida qo'llay biladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Misol uchun, fan o'qituvchisi lirik asar tahlilida nafaqat nazariy bilimlarni egallagan bilimli mutaxassis, balki ifodali o'qish ko'nikmasini egallagan bo'lishi ham muhim talabalardan biridir.

Xususan, bu haqda "Adabiyot o'qitish metodikasi"da shunday qarashlar ilgari suriladi: "Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas'uliyatli lahzalaridan biri matni, albatta o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qilishi va o'quvchilarning uni tinglay olishidir. Shunda sinfdagi hamma o'quvchilar bir necha daqiqa she'rdan olingan estetik ta'sir og'ushida qoladi. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o'qituvchiga shunday imkoniyatni beradi". Bu o'z navbatida tinglovchi (o'quvchi)larning lirik asar ob-havosi, tabiati, lirik qahramonning ruhoniy borlig'ini yaqindan his qilishga imkon yaratadi.

"Adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi va hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida intellektual imkoniyati darajasida mustaqil ravishda hal qiladi".

Bu metodist olimi Q.Husanboyeva tomonidan mustaqil fikrlashning vazifasini, unga o'rgatishning muhimligini isbotlovchi qarash bo'lib, bu xususiyat, adabiy turlar sirasida lirik turdagi asarlarni o'qish va tahlil qilish bilan ko'proq muvofiq desak xato bo'lmaydi. Boisi lirik asar tabiatan lahzalik kayfiyatning mangulik suratini in'ikos ettirgani uchun hajman cheklangan bo'ladi, ammo bu chegara uning tadqiqida, tahlilida, talqinida yangi ufqlarni ochadi, she'rlar mutolaasida nafaqat hissiy, balki aqliy tafakkur ham kengayadi. Ayniqsa, ramziy ma'no tashuvchi, majozan anglashiladigan obrazlarga boy she'rlar tahlilida bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan, lirik asarlarni o'rganish jarayoni adabiy ta'limning eng muhim bosqichi sanaladi.

Ta'kidlash joizki, maktab amaliyotida lirik asarlarni o'qitishda muallimlar tomonidan qator tipik xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Ular quyidagilar:

1) she'rlar faqat matni bilan tanishtirilib, deyarli tahlil qilinmayotganligi; 2) ayrim o'qituvchilar lirik asarlarni o'rganishda ularni yodlatish bilan kifoyalanib qolayotganligi; 3) o'quvchilarda lirik tur janrlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar yuzaki o'rganilayotganligi; 4) ifodali o'qish malakasi shakllantirilmayotganligi. Aslida bu nuqsonlar adabiyot muallimining ilmiy-nazariy va metodik tayyorgarligidagi kamchiliklar bilan izohlanadi.

Nazariyotchi-metodistlar ta'kidlagan yuqoridagi kamchiliklarning har biri lirik asarlarni o'qitishda jiddiy muammo sifatida qaralib, sinflar kesimida bosqichma-bosqich hal qilinsa, o'quvchilarning birinchi galda tahlil kompetentligi shakllanadi, ikkinchidan, badiiy tafakkuri yuksaladi. Sanalgan kamchiliklardan eng avval hal qilinishi lozim bo'lgani sifatida ifodali o'qish malakasini shakllantirishni ko'rsatish, nazarimizda, ayni muddao. Chunki lirik asar his-

kechinmalar, ruhiy holatlar ifodasi o'laroq dunyoga kelgani uchun ham o'quvchi, avvalambor, uning ruhiy holatiga kirishi, she'rning ob-havosi bilan tanishishi, yod olganda esa shu orqali boshqalarga ham ta'sir qila bilishi zarur. So'ngra jiddiy muammo o'laroq she'riy matn tanishuvidan keyingi tahlil jarayoniga alohida urg'u berilishi hamda maktab adabiy ta'limida ham bunga qat'iy odatlanish lozimligini keltirish mumkin. Biz ayni masalaga lirik asarlardagi badiiy detallar poetikasini o'qitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanishning ahamiyati va o'rnini ochib berish aspektidan yondashmoqchimiz. Xususan, fan o'qituvchilari va adabiyotshunoslar tomonidan ta'kidlanayotgan ayrim qarashlarga nuqta qo'yish, aksincha ular tomonidan kamchilik sifatida ko'rsatilgan jihatlarning fazilatini ochib berish o'rinli bo'ladi. Masalan, badiiy asar mutolaasida poetik tafsillarni esda saqlab qolish masalasiga to'xtalaylik: "asar sujetidagi muayyan detallarni eslab qolish kabi o'quvchining tafakkuri, tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan usullar orqali tekshiriladi. Oqibatda o'quvchilarda adabiyot, asar o'qish, tahlil qilish faqat shunday ikir-chikirlarni esda saqlashdan iborat degan munosabatni shakllantirdi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, adabiyot erkin va ijodkorlik darsi. Shunday ekan bunday darslarda ko'proq o'quvchi-yoshlar ongi, tafakkurini rivojlantirish, ijodkorlik qobilyatlarini o'stirish kabi vazifalarni bajarilishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – B. 234-235.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy- metodik asoslari. Ped. fan. dok. dissertatsiyasi.. Toshkent – 2006. – B. 34.
3. To'rayeva S., Xolid A. O'zbek adabiyotida lirik asarlar tahlili. Международная конференция академических наук. – B. 106.
4. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991. – С. 90.
5. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. Filol. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ...diss. –Toshkent: 2024.
6. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. -Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.
7. Quvonch Mamiraliyev. (2022). Genre Modification in Uzbek Poetry of The Independence Period. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(3), 115-119. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1916>
8. Q.Mamiraliyev. Some Reviews on The Mutation of Genres in Uzbek Poetry. (2021). International journal for Innovative Engineering Management Research. Volume 10, Issue 03, Pages: 92-98.
9. Mamiraliyev, Q. (2025). Folklorism in the poetry of the independence period. Bulletin of Pedagogics of New Uzbekistan, 3(2), 100–105. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45025>
10. Quvonch Mamiraliyev. (2025). The Portrayal of Autumn in Classical Poetry. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(08), 138–142. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume05Issue08-33>